



ZOOSEMIZMINING TURLI XIL NOMLARI VA MA'NOLARI

U.S.Toirova

BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

u.s.toirova@bux.du.

Kirish

Zoosemiyaning ijobiy yoki salbiy ma'noda qo'llanilishi xalq madaniyati va e'tiqodiga bog'liq bo'lib, ba'zan yomon xususiyatlarga ega hayvon nomlari yoqtirmaslik, mensimaslik, haqoratlash maqsadida insonga nisbatan ishlatiladi. Shuning uchun ham zoosemizmni psixologik asosga ega va xalq e'tiqodiga aloqador, deb aytish mumkin.

Asosiy qism

Ingliz tilida "dog" so'zi XI asrdan qo'llanila boshlanib, majoziy ma'noda insonlardan nafratlanish, ularni xo'rlash, qadrsizlash, bechora yoki qo'rzoqlarni masxara qilishni ifodalab kelgan. XIV asrda esa *barker* (baqirmoq fe'lidan olingan) leksik birligi itga nisbatan ishlatilgan. XV asrda *barker* majoziy "shovqin qiluvchi" ma'nosida ishlatilib, auksion zali yoki do'konda, arzon tovarlar do'koni yoki shouda baqir-chaqir qilgan insonga nisbatan qo'llanilgan. XV asr oxirida *Noisy Assailant, One Who Barks* leksemasi insonlarni kamsitish maqsadida ishlatilgan. Itning akillashi metaforik yo'l bilan inson baqir-chaqiriga o'xshatiladi. *She/he is a barker* metaforasini tahlil qilar ekanmiz, itlarning xususiyatlari *inson xarakteri, xulq-atvori va axloq domenida* ham mavjudligini kuzatamiz. Itlarning hurishi inson shovqiniga mos kelishini ko'rsatadi va unda kishi hurayotgan it sifatida qabul qilinadi. XV asrda it axloqi buzuvchi, yomon niyatli xoin ayolga, XVI asrda esa injiq, olifta erkaklarga nisbatan ishlatilgan. X asrda itning bolasiga nisbatan ishlatilgan *puppy* so'zi XIV asrda yomon yoki past tabaqali o'rtoq ma'nosida, keyinchalik yumshoq tabiatli



o'g'il, beadab yigitga, XV asrga kelib esa yosh bolaga nisbatan ishlatilgan. Shuningdek, XIV asrda qushlarni ovlashga o'rgatilgan it ma'nosini ham anglatgan¹.

XVI asrda it zoosemizmi qo'pol, tarbiyasiz, pastkash, qo'rqoq kishini ifodalab kelgan. XV asrda inglizlarda xonimning o'yinchog'i sifatida ishlatiladigan kichik itni; "o'yinchoq it"ni bildirgan bo'lsa, XVI asrda "puppy" "chaqqon it" ma'nosida qo'llanila boshlangan. Mazkur zoosemizm keyinchalik "bekorchi, bo'sh latta, beadab yigit" singari salbiy ma'noda ishlatilgan. XV asrda "zoti past, dangasa, qo'pol, bechora" erkak ma'nolarida ham yuritilgan. Fransuz tilidagi *puipea* qo'g'irchoq, XVI asrda ayollarga nisbatan ishlatilgan.

XVII asrda it so'zi "o'ynoqi" yoki sho'x inson, o'rtoq va birodar ma'nosida ishlatila boshlanib, ayyor, omadli, qayg'uli singari sifatdoshlar bilan birga kelgan. Masalan, *My kind dog (mening mehribon itim)* gapi XVII asrda birinchi marta o'g'il bolani ifodalagan.

XVIII asrda it "Yorkshirlik" kishi ma'nosida "Yorkshire – Tike" deb ishlatilgan. XIX asrda "dog" so'zi maktab o'quvchilari nutqida, ya'ni o'zlariga xos jargonda "qo'rqinchli it" ma'nosida ishlatilgan. XIX– XX asrlarda Amerika va Avstraliyaliklar nutqida "informator", ya'ni ma'lumot yetkazuvchi "xoin" ma'nosini anglatib, jinoyatchilarga xiyonat qilgan kishini ifodalagan.

XX asrning o'rtalaridan bu so'z Avstraliya va Yangi Zelandiya jargonlarida "Rim katolik" degan ma'noni anglata boshlagan. Bundan tashqari, *mongrel* zoosemizmi, nasl-nasabsiz, zoti past, pastkash kishi ma'nolarida yuritilgan.

It zoosemizmining birlamchi va ikkilamchi ma'nolarda qo'llanilishi ham kuzatiladi. It kanislar oilasiga mansub to'rt oyoqli hayvon sifatida ishlatilsa, ikkilamchi ma'noda "arzimaydigan, jirkanch, qo'rqoq, axborot beruvchi xoin, ayniqsa, jinoyatchilarga xiyonat qilgan kishi singari mazmunlarda kelgan.

¹ Kiełtyka R. and Kleparski G.A. The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English. – Slovakia: SKASE Journal of Theoretical Linguistics, 2005. – P.27



XX asrda *Cur* arziyas, past zotli qo‘riqchi yoki cho‘pon itiga ishlatilsa, ko‘chma ma‘noda “qo‘rqoq, tarbiyasiz, pastkash” kishi kabi ma‘nolarda kelgan.

XVII-XIX asrlarda *bobtail* dumi kalta kesilgan itga ishora qilgan bo‘lsa, ko‘chma ma‘noda g‘azabli, nafratli kishini anglatgan.² Zoosemizm misollari X.Shreuder, G.Stern, G.Xyuz, G.Kleparskilarning bir qator asarlarida yoritib berilgan. P.P.Stakauar, N.Franki va S.Smit, D.Slankiva, L.Liptakiva, F.Baidar, S.Gasuati, A.Fintanha va Natalan, N.Sh.Hsih, P.J.Diminguaz, F.S.Li, R.Kieltika kabi tadqiqotchilar zoosemizm terminini hayvon metaforasi sifatida ishlatishgan.

Anna Viersbika va Hseyih Shelley Chingyu fikriga ko‘ra, *inson kontseptiga* qaratilgan zoosemik terminlar hayvonlarning tashqi ko‘rinishi, odatiga qarab shakllangan. Olimlar 19 ta it leksik birligini tahlil qilib, ularning ko‘pchiligi xarakter va xulq-atvorni ifodalab kelganini aniqlashgan. Shuningdek, *barker* – ahloq domenini, *surly* – funksiya domenini, *cur* – xarakter domenini, *puppet* –holat va tashqi ko‘rinish domenini ifodalab kelgan. Birinchi holatda birovlar qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lgan kishi anglashilsa, ikkinchi holatda uysiz va do‘stsiz kishi nazarda tutiladi. *Mongrel* nasl-nasab domenini ifodalagan. *Culver* leksemasi Anglo-Saksonlar davrida ishlatilgan bo‘lib, eski ingliz tili dialektida kabutar deb ta‘riflangan, ammo keyinchalik bu lug‘aviy birlik, majoziy ma‘noda muloyim va mehribon inson, degan ma‘no kasb etgan.

V.Kopalinski ta‘kidlaganidek, kabutar kabi kichik qushlar har doim yoqimlilikni aks ettiradi. Bundan tashqari, ular samoviy poklik va aybsizlik ramziy ma‘nolarida kelib, tirilish, qayta tug‘ilish va taqvodorlikni ham anglatadi. Ular eng avvalo, sevgi, zavq ifodalaydi. *Culver* – kabutarning ikkilamchi ma‘nosi aybsizlik va poklik ma‘nosida xulq-atvor domeniga mos keladi.

Bunny so‘zi Shotlandiya dialektida quyon yoki olmaxonni bildiradi. XVI asrning ikkinchi yarmidan bu so‘z uy hayvoni quyonning nomi, insonga xos yoqimli

² Kieltyka R. and Kleparski G.A. The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English. – Slovakia: SKASE Journal of Theoretical Linguistics, 2005. – pp.30-31.



tuyg'uni ifodalash maqsadida ishlatila boshlangan bo'lsa, XVII asrda ayol va bolalarga nisbatan asalim, quyonim, azizim kabi erkalovchi ma'nolarni bildirgan. *Bunny* xushomadgo'y bola sifatida ham ishlatilgan. Quyoning ekstralingvistik tasviri ancha murakkab. Bir tomondan, o'zgaruvchanlik, qo'rqqoqlik va yovuzlik, boshqa tomondan esa, topqirlik, unumdorlik, tezlik va hushyorlik sifatlarida ham ko'rish mumkin.

Diver Dove – kabutar so'zidan kelib chiqqan, *turtle* – toshbaqa va toshbaqa-kabutar birliklari XV asrga qadar majoziy ma'noda mehr-muhabbat, ya'ni turmush o'rtog'iga bo'lgan mehrni anglatgan.³ XV asrdan boshlab sevikli yor, suyakli umr yo'ldosh ma'nolarida ishlatilgan. Har uchta holatda so'zlarning hayvonga xos asl ma'nolari va ularning ikkilamchi, kishiga xos yoqimli hislar bilan ifodalanishi tarixiy jihatdan o'zgarib borgan, ya'ni ko'prik vazifasini o'tagan.

G.Lakoffning ta'kidlashicha, ko'rinishni belgilovchi xususiyatlar hayvon vositalari orqali berilishi muhim.⁴ G.Stern hayvon metaforalari ko'pincha kishilarga nisbatan haqoratomuz nomlarni amortizasiya qilish maqsadida foydalanilgan, deb aytadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kiełtyka R. and Kleparski G.A. The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English. – Slovakia: SKASE Journal of Theoretical Linguistics, 2005. – P.27
2. Kiełtyka R. and Kleparski G.A. The scope of English zoosemy: The case of Domesticated Animals. – Poland: Studia Anglica Resoviensia, 2005. – №3. – pp. 76-87.
3. Grząśko A. On Zoosemy, Foodsemy and Plantosemy: A Cognitive Approach to Selected Terms of Endearment. – Poland: Studia Anglica Resoviensia, 2017. – P.14.
4. Lakoff G. More than cool reason. A field guide to poetic metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – P.25.

³ Grząśko A. On Zoosemy, Foodsemy and Plantosemy: A Cognitive Approach to Selected Terms of Endearment. – Poland: Studia Anglica Resoviensia, 2017. – P.14.

⁴ Lakoff G. More than cool reason. A field guide to poetic metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – P.25.